O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____

B.A.Xolikov

2024-yil “____” _____

Ro‘yxatga olindi: № BD-60110700-1.04

2024-yil “____” _____

IFODALI O‘QISH VA NUTQ MADANIYATI FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti

Fan/Modul kodi IO‘NM1204	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4
Fan/Modul kodi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari** **4**

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	**Ifodali o‘qish va nutq madaniyati**	60	60	120

2. **I. Fanning mazmuni**– “Ifodali o‘qish va nutq madaniyati” fani mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, millat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiyma’naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, mutolaa jarayonida ifodali o‘qish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, lirik, epik va dramatik turlaming o‘qish yo‘llarilari hamda usullarini o‘rganish masalalarini qamrab oladi. Fan badiiy asar mohiyatini tushunish, tahlil qilish, yozuvchi yoki shoir g‘oyaviy-badiiy niyatini ilg‘ash, mumtoz asarlar matni ustida ishlash hamda ularni sharhlab o‘qishda talabalami zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Ushbu fanni o‘qitish orqali o‘zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti, badiiy matn tahlili aspektida tushunadigan, og‘zaki va yozma nutqi ravon, aruz vaznidagi she’rlami, badiiy matnni ifodali o‘qiy oladigan, nutq madaniyati ko‘nikmalarini egallagan yuksak malakali pedagog kadrlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

Fanning vazifasi –she’riyat, nasr va dramaturgiyamizga xos yuksak g‘oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo‘lmoq, mumolaaga xos nafis ohanglarni to‘la his qilmoq uchun esa adabiyot nazariyasi fanini chuqur o‘rganish zarur. O‘zbek adabiy tili va uning grammatik xususiyatlarini to‘liq o‘zlashtirmog‘i lozim. Zero, ifodali o‘qish san’atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo‘lish hissini tarbiyalash va o‘stirishdan iboratdir. Mazkur dasturning asosiy mohiyati talabalarga ifodali o‘qishning nazariy asoslarini o‘rgatish bilan birga, ularda ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishdan ham iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- **Mavzu. Mutolaa madaniyati: genezisi va tarixiy omillari.** Qadim folklor manbalari- epos, xalq qissa va hikoyalari, ertaklar va qo‘shiqlarda notiqlik va nutq masalasi.

2- **Mavzu. Mutolaa madaniyati fanining boshqa bilan aloqasi.**

3- **Mavzu. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus asarlarida notiqlik nazariyasi talqini.**

4- **Mavzu. Movanaunahrda ifodali o‘qish va notiqlik san`ati**

	taraqqiyotida O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fikr- qarashlari. Ibn Sinoning “She`r san`ati”, Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya” va boshqa asarlari, Forobiyning “Kitob ai xitobat” risolatida keltirilgan mukammal nutq tuzish haqidagi qimmatli fikrlarning bugungi kunda ahamiyati. **5- Mavzu. Qadim Yunonistonda notiqlik san`ati.** Platon va Suqrot asarlarida notiqlik masalasi talqini. **6- Mavzu.** Notiqlik san`ati va Arestotel ijodi, Aristotelning “Poetika” va “Ritorika” asarlari. **7- Mavzu. Husayn Voiz Koshifiy - notiq va axloq targ‘ibotchisi**. Husayn Voiz Koshifiy – Alisher Navoiy va Xondamir nigohida, “Axloqiy Muhsiniy”, “Futuvvatnomai sultoniy” asarlarida so‘z san`ati va so‘zlovchi madaniyati haqida fikr mulohazalar. **8- Mavzu. “Majolis un-nafois” tazkirasidagi Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy haqida ma’lumotlar.** Xoja Muayyad Mehnagiy o‘z zamonasining iqtidorli notiq laridan biridir, Riyoziyning o‘zaliyoti tahlili. **9- Mavzu. Mumtoz asarlarda voizlik san’atining ulug‘lanishi.** **10-Mavzu.** “Devoni lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” asarida so‘z ta’rifi, ilm-ma’rifat targ‘ibi. **11-Mavzu. Aruz vaznidagi lirik asarlarni ifodali o‘qish.** Alisher Navoiyning “Zihihusnung zuhuridin...”, “Shifoi vasl qadrin...” deb boshlanuvchi g‘azallarini vaznga solib o‘qish. **12-Mavzu. Kichik janrlar mutolaasida nomuvofiqlik masalasi**. Ruboiy va tuyuq janri misolida kichik janr mutolaasini o‘rganish. **13- Mavzu. Navoiy ruboiylarini tahlili.** **14-Mavzu. Bobur va Husayniy g‘azaliyoti vazn xususiyatlari, mavzu ko‘lami.** Boburning rindona, Husayniyning oshiqona o‘azallarini o‘qish ritmi, ifodali o‘qishda vazn talablari. **15-Mavzu. Gulxaniy “Zarbulmasal” asaridagi masallarning o‘qilish talablari**. “Zarbulmasal” asaridagi she`riy va nasriy masallar tahlili. **16-Mavzu. Asliyat va tarjima qiyosi.** **17-Mavzu.** Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini mutolaa qilishda ritmning o‘rni. **18-Mavzu. Lirik janrlarda ohang va musiqiylik.** **19-Mavzu.** Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonidagi xalqona ritm. **20-Mavzu. Mutolaa va ifodali o‘qish san’atining teatr va kino san’ati bilan bog‘liqligi.** **21-Mavzu. Urg‘u va pauzaning ifodali o‘qishdagi ahamiyati.** **22-Mavzu. Dramatik asarlarda ritm va ohang.** **23-Mavzu. Epik asarlarda nutq va mutolaa masalasi.** **24-Mavzu. Ifodali o‘qishda diologik nutqning muhimligi.** **25-Mavzu.** Farxod va Xusrav diologi tahlili va dostondagi qahramon nutqi va dialoglar ustida ishlash.

	26- Mavzu. Badiiy ijrochilik san`ati. **27-Mavzu.** Mumtoz asarlar matni ustida ishlash usullari. “Hayrat ul-abror” dostoni misolida. **28-Mavzu.** Jomiy “Bahoriston” asari mutolaasi va matni ustida ishlash. **29-Mavzu. Cho‘lpon she'rlarini ifodali o‘qish.** Mutolaa jarayonida jumla, so‘z va nutqning vazifasi. **30-Mavzu.** Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani mutolaasi. **III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular: l. Roviylik san’ati haqida tushuncha. 2. O‘zbek notiqlik san’ati tarixini o‘rganish. 3. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvatnomai sultoniy” asarini o‘qish. 4. Yunonistonda notiqlik san’atining paydo bo‘lishi. 5. Afmada notiqlik san’ati taraqqiyoti 6. Ifodali o‘qish san’atining taraqqiy etishida “Avesto”ning ahamiyati. 7. Demosfen notiqlik faoliyatini o‘rganishning ahamiyati. 8. Sitseronning “-Notiq” va “Notiqlar haqida” asari. 9. Kaykovus “Qobusnoma” asarini o‘qib, tahlil qilish 10. Barmoq vazni xususida. “Devoni-lug‘otit-turk” asaridagi to‘rtliklar sharhi. 11. Alisher Navoiyning “Ayt”, “Sanga” radifli g‘azallarini yodlash 12. “Xamsa” dostonlarida dialoglaming o‘rni. Farhod va Xusrav dialogi. 13. Navoiy asarlaridagi dialoglar ustida ishlash 14. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani mutolaasi. 15. Cho‘lpon she'rlarini ifodali o‘qish. 16. Urg‘u va uning ifodali o‘qishdagi ahamiyati. Pauza. Pauza turlari. Intonatsiya. Temp va ritm. 17. Lirik asarlarni ifodali vato‘g‘ri o‘qishni o‘rganish. 18. Mashrab, Ogahiy g‘azal va ruboiylarini o‘qish. 19. Usmon Nosiming “Monolog” she’ri ustida ishlash. 20. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ridagi intonatsiya, urg‘u, pauzalar ustida ishlash. 21. Nasriy asarlar matni ustida ishlash. 22. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan parcha o‘qish. 23. Hamzaning “Paranjj sirlari” dramasini rollarga bo‘ib o‘qish. 24. “Abulfayzxon” tragediyasida fojiaviy pafos. 25. “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” asarida komik-satirik ruh. 26. “Shum bola” asarida qahramon nutqi. 27. Oybekning “Davrim jarohati” poemasini ifodali o‘qish. 28. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining ritmik muqoyasasi. 29. Zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi - o‘qish san’ati ustasi.
3.	**IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘qitishdan maqsad - Mutolaa madaniyati tarixi, Sharq va G‘arb

	olimlari, adiblari, jamoat rahbarlarining bu boradagi qarashlari o‘rganiladi: ▪Adabiy til norma (me’yor)lari; ▪ Madaniy nutqqa qo‘yiladigan talablar; ▪ Til uslublari va nutq madaniyati masalalari; ▪ Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Mazkur kurs amaliy mashg‘ulotlarda o‘rganilishi nazarda tutilgan. Mazkur fanga oid nazariy ma’lumotlar, amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga amaliy mashg‘ulotlar davomida e’tibor qaratiladi. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati kursini o‘qitishda talabalarning o‘zbek tili, falsafa, mantiq, uslubshunoslik kabi fanlardan egallagan bilimlariga asoslaniladi.
4.	**V. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • interfaol keys-stadi; • tarqatma materiallar; • ko‘rgazmali qurollar; • kompyuter; • internet yangiliklari; • muammoli ta’lim;
5.	**VI. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish**.**
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. - Toshkent, 2015. 2. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. - Toshkent: Fan, 2006 3. Masharipova Sh. Ifodali o‘qish praktikumi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011. 4. Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. T.:Innovatsiya-Ziyo, 2019. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi//Xalq so‘zi. - Toshkent, 2016, 8-dekabr. 2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik 0 ‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Xalq so‘zi. - Toshkent, 2016, 16 dekabr. 3. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. - Toshkent: Sharq, 1998 5. Fitrat. Aruz haqida. - Toshkent: O‘qituvchi, 1997 6. VohidovE. She’r dunyosi. - T.: Sharq, 2001 **7.** Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. - Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2001**.**

	8. A’zamov A. Aruz. - Toshkent: 2006 9. Umirov H. Adabiyot qoidalari. - Toshkent: 0‘qituvchi, 2002 10.Boboev T, Boboeva Z. Badiiy san’atlar. - Toshkent: 1999 4. Rasulov R. va b. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati. T.: 0‘qituvchi, 2006. 5. Begmatov E. va b. O‘zbek nutq madaniyati ocherklari. T.: Fan.1983. 6. Begmatov E. va b. Adabiy norma va nutq madaniyati.T.: Fan. 1983. 7. Quno‘urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T.: O‘qituvchi 1982. 8. Musayev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. T.: Fan. 1976. **Axborot manbalari** 1. http://natlib.uz -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti 2. htto://ensiklopediva.uz - 0 ‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti 3. http://zivouz.uz - O‘zbek va jahon adabiyoti portal 4. http://zivonet.uz- O‘zbek iston milliy ta’lim portal 5. http://kitob.uz/ - Respublika bolalar kutubxonasi 6. http://www.kamolot.uz - “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti 7 . http://www.infolib.uz - Respublika Axborot kutubxona markazi 8. http://referatlar.uz -Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lim sayti 9. http://book.uz - Elektron adabiyotlar kutubxonasi 10. Q.httn://translate.google.co.uz- Google -tarjimon sayti
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil “____” _____ dagi “____”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas’ullar**: D.Sh.Mamirova – SamDChTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti X.Z.Xayrullayev – SamDChTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi professori.
9	**Taqrizchilar:** Sh.Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. B.N. Turniyazov – SamDChTI dotsenti, filologiya fanlari doktori.